

Sh A R T N O M A № 96
(bosma kitob mahsulotlarini chop etish to‘g‘risida)

Toshkent shahri

2022-yil 11-avgust

“NISO POLIGRAF” MChJ keyingi o‘rinlarda “Ijrochi” deb yuritiladi, **Ustav** asosida harakat qiluvchi direktor **E.Axmedov** shaxsida bir tomonidan va “**Adolat**” milliy huquqiy axborot markazi, keyingi o‘rinlarda “**Buyurtmachi**” deb yuritiladi, **Ustav** asosida harakat qiluvchi direktor **F.Tojiyev** shaxsida ikkinchi tomonidan mazkur shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ijrochi mazkur shartnomaning 2.1-bandida ko‘rsatilgan kitobni sahifalash, original maketini tayyorlash, tahrir qilish va chop etish, Buyurtmachi esa shu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to‘lash majburiyatini oladi. **Kitob formati** 60x90 1/16, **Hajmi** 1. kitob 200 bet, 2. kitob 376 bet. 3. kitob 432 bet. 4. kitob 240 bet. **Muqova** Tisneniya bumvinilli qattiq muqova. **Ichki sahifa** Rangsiz offset 70 gr. **Priressovka** Ip bilan tikiladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnomaning umumiyy bahosi quyidagi tartibda belgilanadi:

Nomi	Adadi	Bir dona bahosi	Umumiyy summasi	QQS	QQS summasi	Umumiyy summasi QQS bilan
O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi	500	35 600	17 800 000	15	2 670 000	20 470 000
O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi	500	47 700	23 850 000	15	3 577 500	27 427 500
O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy-prosessual kodeksi	500	51 700	25 850 000	15	3 877 500	29 727 500
O‘zbekiston Respublikasining Jinoy at-ijroiya kodeksi	500	38 000	19 000 000	15	2 850 000	21 850 000
JAMI						99 475 000

Shartnomaning umumiyy bahosi: **99 475 000 so‘m, QQS bilan.**

2.2. Shartnoma bahosi o‘z ichiga kitob mahsulotlarini o‘rash xarajatlarini ham oladi.

2.3. Shartnoma bahosi inflatsiya, xom ashyo va xizmatlar narxining o‘zgarishi natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog‘liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3.1 va 3.2-bandlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO‘LOV SHARTLARI

3.1. Buyurtmachi shartnoma bahosining 30% ni ushbu shartnomaga asosan pul o‘tkazish yo‘li bilan shartnoma imzolangan sanadan boshlab, shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachilik bo‘limlarida ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lganda, tegishli g‘aznachilik bo‘limi tomonidan ro‘yxatga olingan kundan boshlab 10 bank ish kunidan kechiktirmasdan Ijrochining hisob raqamiga oldindan o‘tkazadi.

Shartnoma bahosining qolgan 70% qismi chop etilgan bosma kitob mahsulotining barcha nusxalari buyurtmachi tomonidan ijrochi tashkilot manzilidan olib chiqib ketilgan kundan boshlab, 90 bank ish kuni davomida to‘lanadi.

3.2. To‘lov to‘lov topshiriqnomasi asosida Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI

4.1. Ijrochi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni kitobning darakchi nusxalari tasdiqlangandan so‘ng 10 (o‘n) ish kuni ichida bajaradi.

4.2. Kitobning darakchi nusxalari tasdiqlanganidan so‘ng unga o‘zgartirish va qo‘srimcha kiritilgan taqdirda, o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi bilan bog‘liq holda Ijrochi tomonidan bajarilgan qo‘srimcha xarajatlar haqi Ijrochi talab qilgan muddatda va miqdorda Buyurtmachi tomonidan qoplanadi.

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Ijrochining majburiylari:

5.1.1. O‘z kuchi va mablag‘lari hisobidan ushbu shartnomaning 4.1-bandida ko‘rsatilgan muddatda va 2.1-bandda ko‘rsatilgan hajmda barcha ishlarni bajarish va topshiriq;

5.1.2. Kitobni sahifalashda aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish;

5.1.3. Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 5.3.4 bandida ko‘rsatilgan muddatda xabar berilganda tayyor mahsulotda aniqlangan kamchilik va nujsonlarni skunlik muddatda bartaraf etish.

5.2. Ijrochining huquqlari:

5.2.1. Buyurtmachidan bajarilgan ishlarni uchun ushbu shartnomaning 3.1, 3.2-bandlarida ko‘rsatilgan tartibda va muddatlarda haq to‘lashni talab qilishni.

5.2.2. Kitobning sahifalangan elektron shaklini u Buyurtmachiga taqdim etilgandan boshlab 2 kundan kechiktirmay tasdiqlab berishni talab qilish.

5.3. Buyurtmachining majburiyatlar:

5.3.1. Shartnomada va uning ajralmas qismi hisoblanuvchi boshqa hujjalarda belgilangan hajmda va muddatda Ijrochidan bajarilgan ishlarni qabul qilish;

5.3.2. Ijrochi tomonidan kitoblar tayyor ekanligi haqida xabar berilgandan boshlab 3 kun ichida ularni Ijrochi joylashgan joydan olib ketish.

5.3.3. Ushbu shartnomaning 3.1, 3.2-bandlarida ko'rsatilgan muddatda va tartibda haq to'lash.

5.3.4. Tayyor mahsulot qabul qilingandan keyin 3 kundan kechikmay unda aniqlangan kamchilik va nuqsonlar haqida Ijrochini ogohlantirish.

5.4. Buyurtmachining huquqlari:

5.4.1. Kitobning elektron fayllari tasdiqlanguniga qadar ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

5.4.2. Ijrochidan tayyor mahsulotda aniqlangan kamchiliklarni o'z kuchi va imkoniyatlari bilan bartaraf etishni yoki uni yaroqlisi bilan almashtirib berishni talab qilish.

5.5. Ijrochi va Buyurtmachi qonun hujjalarda belgilangan boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjalarning talablariga zid keladigan har qanday arakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rinishiga kafolat beradi.

6.2. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilish kerak: "1008" ishonch telefoni, telegram-kanali ("@anticorbot"), Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

7.2. Buyurtmachi ishlarni chiqariladigan bosma mahsulot(lar)ning asl qo'lyozmasi yoki maket tasvirini to'liq, o'z vaqtida topshirmagan taqdirda har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma umumiyo ahosining 0,1% miqdorida, lekin shartnoma umumiyo bahosining 10 % idan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

7.3. Buyurtmachi to'lov intizomini buzgan taqdirda to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan pul summasining 0,4 % miqdorida, lekin kechiktirilgan pul summasining 50 % idan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

7.4. Ijrochi tomonidan ishlarni bajarish va tayyor mahsulotni topshirish Buyurtmachining rozilgisiz ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilmagan taqdirda har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma umumiyo bahosining 0,4 % i miqdorida, lekin uning 50 % idan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

7.5. Neustoykani to'lash taraflarni o'z majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

8. FORS-MAJOR

8.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'limgan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'limgan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarini bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

8.2. Vakolatli organ tomonidan berilgan givohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjetdir.

8.3. O'z majburiyatlarini bajar olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishga ta'siri daqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzlusiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida

bekor qilinishi ehtimoli bo‘lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnomasi yuborish yo‘li bilan bekor qilinishi mumkin.

9. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha yoki u bilan bog‘liq holda taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar muzokaralar asosida yoki talabnomasi bildirish tartibiga rioya qilingan holda hal etiladi.

9.2. Bildirgan talabnomasiga qonunda belgilangan bir oylik muddat ichida javob olmagan yoki talablari qanoatlantirilmagan taqdirda, huquqi buzilgan deb hisoblovchi taraf nizoni hal qilish uchun da’vo arizasi bilan sudga murojaat qilishga haqli.

10. SHARTNOMANI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

10.1. Mazkur shartnomaga har qanday o‘zgartirish va qo‘srimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatlari shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

10.2. Mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo‘l qo‘yiladi.

10.3. Shartnomani bir taraflama bekor qilishga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

10.4. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Ijrochining birgalikdagi kelishuviga muvofiq tayyorlanishi tugallanmagan bosma mahsulotlar Buyurtmachiga topshiriladi va u birgalikda kelishilgan hajmda bajarilgan ishlar qiymatini Ijrochiga to‘lashi lozim.

10.5. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 30 kun oldin yozma bildirishnomasi yuborishi shart.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, ikkala nusxa ham bir xil yuridik kuchga ega va taraflarga bir nusxdan beriladi.

11.2. Shartnoma taraflar uni imzolagan kundan boshlab, shartnoma Moliya vazirligining g‘aznachilik bo‘limlarida ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lganda, tegishli g‘aznachilik bo‘limida ro‘yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va shartnoma majburiyatları to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

12. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

“Ijrochi”

“NISO POLIGRAF” MChJ

Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani

“Oq ota” QFY, Markaziy ko‘chasi 1-uy

Tel.: 71-234-85-88

H/r 20208000304728964001 MFO 00842

KDB BANK UZBEKISTON

INN № 300934775

OKED 18120

Direktor
NISO
POLIGRAF

E.Axmedov



“Buyurtmachi”

“Adolat” milliy huquqiy

axborot markazi davlat muassasasi

Manzili: Toshkent shahar, Amir Temur
shohko‘chasi, 19-uy

H/r: 20212000300125676003

“Mikrokreditbank” ATB Bosh ofisi,

MFO 00433, INN 201453166,

OKED 63110, RKP NDS: 326010014912



Direktor

F.Tojiyev

Yuriskonsul

Ch.Yuldasheva